

Buxoro viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari 2025- yil yanvar-sentabr


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi o'zgarishi
- III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-sentabr oylaridagi dastlabki ma'lumotlarga ko'ra (*norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda*), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **29 510,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **113,1** % ga yetdi.

Ma'lumot uchun: 2024- yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar hajmi **23 908,8** mlrd. so'mni, o'sish sur'ati esa **112,1** % ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'ati dinamikasi



II. Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi o'zgarishi

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **27,8** %, ya'ni **8 194,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan ushbu shaharning o'sish sur'ati **115,7** % ni qayd etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulush G'ijduvon (**9,0** %), Vobkent (**4,8** %) va Romitan (**3,9** %) tumanlarida kuzatildi. Qorovulbozor tumanida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **401,5** mlrd. so'mni yoki umumiy xizmatlar hajmining **1,4** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimida asosiy ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar-sentabr

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati ¹	29 510,4	100,0	113,1
<i>tumanlar:</i>			
Olot	701,9	2,4	113,4
Buxoro	1 026,0	3,5	114,8
Vobkent	1 414,8	4,8	112,2
G'ijduvon	2 655,8	9,0	116,8
Kogon	646,2	2,2	112,6
Qorako'l	924,7	3,1	112,8
Qorovulbozor	401,5	1,4	117,5
Peshku	1 106,3	3,7	113,9
Romitan	1 157,3	3,9	112,7
Jondor	1 131,5	3,8	113,8
Shofirkon	898,3	3,0	113,5
<i>shaharlar:</i>			
Buxoro shahri	8 194,4	27,8	115,7
Kogon shahri	826,2	2,8	118,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Kogon shahridan tashqari viloyatning boshqa shahar va tumanlarida, xususan, Qorovulbozor (**117,5 %**), G'ijduvon (**116,8 %**), Buxoro (**114,8 %**), Peshku (**113,9 %**) tumanlarida kuzatildi. 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Vobkent tumanida (**112,2 %**), shuningdek, Kogon (**112,6 %**) va Romitan (**112,7 %**) tumanlarida qayd etildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Buxoro viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **14 133,3** ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davridagi (**11 627,7** ming so'm) ko'rsatkichga nisbatan **2 505,6** ming so'mga yoki **11,3 %** ga o'sishi qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ko'rsatkichi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, **27 124,9** ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan **4 964,9** ming so'mga (+**13,7 %**) oshdi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Shofirkon (**4 755,2** ming so'm) qayd etildi.

¹shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar-sentabr)**

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	14 133,3	111,3
<i>tumanlar:</i>		
Olot	6 597,0	111,8
Buxoro	5 609,8	112,7
Vobkent	9 295,6	110,3
G'ijduvon	8 070,0	115,2
Kogon	7 435,6	110,4
Qorako'l	5 284,1	111,3
Qorovulbozor	19 585,8	115,2
Peshku	8 237,4	111,9
Romitan	7 510,2	111,3
Jondor	5 958,5	111,8
Shofirkon	4 755,2	112,4
<i>shaharlar:</i>		
Buxoro shahri	27 124,9	113,7
Kogon shahri	12 574,5	116,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **20 314,5** mlrd. so'mni yoki umumiy bozor xizmatlari hajmining **68,8** % ni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan **15,1** % ga o'sish kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida Buxoro shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **952,7** mlrd. so'mga (+**26,2** %) oshib, **3 606,5** mlrd. so'mga yetdi. Mazkur shaharda kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **44,0** % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, G'ijduvon (**2 232,8** mlrd. so'm), Jondor (**910,5** mlrd. so'm) va Romitan (**838,1** mlrd. so'm) tumanlarida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Qorovulbozor tumanida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **176,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Kogon (**537,7** mlrd. so'm) va Olot (**570,7** mlrd. so'm) tumanlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi nisbatan past bo'lgan.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar-sentabr

	Hajmi, mlrd. so'mda	Jami hajmdagi ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	20 314,5	68,8	115,1
<i>tumanlar:</i>			
Olot	570,7	81,3	111,8
Buxoro	821,4	80,1	116,2
Vobkent	816,2	57,7	114,0
G'ijduvon	2 232,8	84,1	119,3
Kogon	537,7	83,2	118,7
Qorako'l	723,4	78,2	115,1
Qorovulbozor	176,2	43,9	83,8
Peshku	819,7	74,1	115,3
Romitan	838,1	72,4	119,9
Jondor	910,5	80,5	116,6
Shofirkon	707,3	78,7	116,0
<i>shaharlar:</i>			
Buxoro shahri	3 606,5	44,0	126,2
Kogon shahri	611,3	74,0	122,3

III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 27- fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida xizmatlar sohasini rivojlantirish va uning monitoringini amalga oshirish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishiga savdo xizmatlari (+13,5 %; o'sishiga ta'siri 3,0 foiz band hissa qo'shdi), transport xizmatlari (+16,6 %; 2,9 f.b.), moliyaviy xizmatlar (+15,5 %; 2,2 f.b.), yashash va ovqatlanish xizmatlari (+7,5 %; 1,9 f.b.), boshqa xizmatlar (+15,5 %; 0,6 f.b.), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (+16,8 %; 0,5 f.b.), shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (+21,8 %; 0,4 f.b.) va ijara xizmatlari (+26,0 %; 0,4 f.b.) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Shaxsiy xizmatlar (+13,6 %), kompyuter va maishiy texnikani ta'mirlash (+15,4 %) xizmatlari hajmining 0,3 foiz bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2025-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari 25,6 %, savdo xizmatlari 21,3 %, transport xizmatlari 18,5 %, moliyaviy xizmatlar 13,3 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar 4,5 %, boshqa xizmatlari esa 3,8 % ulushni egalladi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr)


	Hajmi, mlrd. so'mda		O'sish sur'ati, % da
	2024- y.	2025- y.	
Xizmatlar – jami	23 908,8	29 510,4	113,1
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	712,5	921,7	116,8
moliyaviy xizmatlar	3 350,9	3 926,9	115,5
transport xizmatlari	4 228,1	5 458,0	116,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	3 837,0	4 915,3	115,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	6 145,5	7 560,9	107,5
savdo xizmatlari	5 260,6	6 279,4	113,5
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	364,8	484,7	128,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 152,9	1 337,4	102,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	411,2	569,2	121,8
ijara xizmatlari	367,8	506,4	126,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	461,7	577,8	115,4
shaxsiy xizmatlar	451,1	584,6	113,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	132,0	174,4	120,9
boshqa xizmatlar	869,7	1 129,0	115,5

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)


2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **1 415,4** mlrd. so'mga oshib, **7 560,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Uning o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, mazkur xizmatlar ulushi **95,7 %** darajasida qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi tarkibi



2024- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan ushbu tahlil qilinayotgan davrda savdo xizmatlari hajmi **1 018,8** mlrd. so'mga oshib, **6 279,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Savdo xizmatlari hajmining turlari bo'yicha tarkibi



Savdo xizmatlarining umumiy hajmida chakana savdo ulushi **62,7 %** ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **24,1 %** ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiy hajmida **13,2 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida transport xizmatlari hajmi **5 458,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu tarmoqda eng katta ulushni avtotransport xizmatlari egallab, **90,1 %** ni, o'sish sur'ati esa **115,0 %** ni tashkil etgan.

Transport xizmatlarining alohida turlari bo'yicha xizmatlar hajmi, mlrd.so'm



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **337,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustun bo'lib, **74,8 %** ga yetdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi (**484,6** mlrd. so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **98,9 %** darajasida qayd etildi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **569,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Mazkur sohadagi xizmatlar umumiy hajmining **37,2** % ni sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar tashkil etdi. Shifoxona muassasalari xizmatlari **31,5** %, tibbiy amaliyot va stomatologiya sohasidagi xizmatlar – **12,4** %.

Ijara xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlariga to'g'ri kelib, **44,8** %ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda shakllantirilgan.

Oylik xizmatlar hajmi quyidagi manbaalar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari hamda notijorat tashkilotlar (ro'yxat bo'yicha) tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari va kichik korxonalar hamda mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

c) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllari asosida baholash;

d) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yoki xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lmagan barcha xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste'molchilarga (jumladan, norezidentlarga) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**da ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlar bo'yicha **hisoblangan to'lovlar (QQS va aksizsiz)** hisobga olinadi.

Xizmatlar bozor xizmatlari sifatida hisobga olinishi uchun, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi, real oldi-sotdi obyekti bo'lishi, narxi ishlab chiquvchi sarf-xarajatlarini to'liq yoki sezilarli darajada qoplasa, bunday xizmatlar **bozor xizmatlari** sifatida hisobga olinadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), shartnoma narxlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan to'lov kunida belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST (Milliy statistik tasniflagich) bo'yicha G-S seksiyalarga kiradigan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi asosida shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

Tayyorlash uchun mas'ul:
Xizmatlar va savdo sohasi
statistikasi bo'limi

Manzil: 200100, Buxoro,
S. Ayniy ko'chasi,3
Pochta: info@buxstat.uz
Tel.: 65-223-79-41

